



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi • digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 2

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





Tarix ixtisosligi bo'yicha kadrlar tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish.

Tasheva Shaxnoza Uzakovna

Qarshi davlat universiteti doktoranti.

Annotatsiya. Maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) zamonaviy jamiyatdagi, xususan, ta'lim tizimidagi roli va ahamiyati tahlil etiladi. AKTning tarix fanini o'qitishdagi imkoniyatlari, afzalliklari va istiqbollari ko'rib chiqiladi. Raqamli texnologiyalarning vizual xotirani mustahkamlash, arxiv materiallarini qayta ishlash va o'quv jarayonini interaktivlashtirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, maqolada O'zbekiston Respublikasida AKTni ta'lim sohasiga joriy etish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), raqamli texnologiyalar, ta'lim, tarix, sun'iy intellekt, vizual xotira, interaktivlik, arxiv materiallari, qonunchilik.

Abstract. The article analyzes the role and importance of information and communication technologies (ICT) in modern society, in particular in the education system. The possibilities, advantages and prospects of ICT in teaching history are considered. The importance of digital technologies in strengthening visual memory, processing archival materials and interactivity of the educational process is highlighted. The article also analyzes the regulatory and legal documents adopted in the Republic of Uzbekistan on the introduction of ICT in the field of education.

Keywords. Information and communication technologies (ICT), digital technologies, education, history, artificial intelligence, visual memory, interactivity, archival materials, legislation.

Hozirgi vaqtda butun dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) jadallik bilan rivojlanib, xalq xo'jaligining deyarli barcha sohalariga kirib bormoqda. Mazkur texnologiyalar rivojlanishning bosqichi bo'lmish zamon talablaridan biridir[1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasida "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkonini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda degan so'zlarni keltiradi [2]. "Kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida ma'lum vazifalarni hal etish natijasida yangi ma'lumotlar-bilimlar, ya'ni haqqoniy sinovdan o'tgan ma'lumotlar paydo bo'ldi. Keyinchalik bu bilimlar o'zga vazifalarni hal etish yoki oldingisini aniqlashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bazasini aks ettirdi. Shu yo'sinda har bir olgan ma'lumot kelajak avlodga turli yo'llar bilan yetkazib kelindi. Bugungi kunda insoniyat tarixiy taraqqiyoti IV sanoat inqilobi bo'sag'asida turibdi. Xo'sh IV sanoat inqilobi bu





nima? Bu jarayon iitimoiy hayotning barcha jabhalarida sun'iy intellektning kirib borishi, robotlashgan texnologiyali jamiyat-ya'ni insonning oddiy turmush tarziga robototexnikaning kirib borishi, zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan inson omilisiz boshqaruvga ega bo'lgan moddiy va maishiy texnologiyalar. Bugungi kundagi taraqqiyot jadal su'atlarda ketayotgan ekan biz bu sohaning faqatgina ijobiy tomonlarini olishimiz va texnologiyalarga qaram bo'lmasligimiz kerak.

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Elektron tijorat" va boshqa bir qator qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsion texnologiyalarini jorey etish to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'I Ziyonetni tashkil etish to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsion texnologiyalarini jorey etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asos qilib olinmoqda [3].

Tarixni o'rganishda albatta raqamli texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib qoladi. Sun'iy intellect orqali yaratilayotgan insoniyat taraqqiyotining turli davrlarini animatsion tarzda jonli namoyon qilayotgan programmalar bugun bisyor. Albatta, ularning qanchalik darajada asosli ekanligini tekshirib, tarix fani darslarida foydalansak bo'ladi, bu visual xotirani mustahkamlashga yordam beradi. Bundan tashqari, arxivlardan olingan sur'atlarni tiklashda, ularga jonli tasvir bagishlashda (Ko'rgazmali axborotni o'zlashtirilishi oson) axborotni grafik shaklda ishlab chiqish, taqdim etish, obyektlar va fayllarda bo'lgan noografik obyektlar o'rtasida bog'lanishlarni o'rnatish kompyuter grafikasi orqali amalga oshiriladi [3].

Tarixiy suratlar yoki obyektlarni chizmalarini tiklash uchun Adobe system, INC kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan Adobe Photoshop dasturi ishlatishda ma'lum qulayliklarga ega. Bu dastur orqali tasvirlarni tahlil qiluvchi yordamida fotosuratlarga qo'shimchalar kiritish, fotosuratdagi dog'larni o'chirish, eski rasmlarni qayta ishlash va tiklash, rasmlarga matn kiritish, qo'shimcha maxsus effektlar bilan boyitish, bir fotosuratdagi elementlarni ikkinchi fotosuratga olib o'tish, suratdagi ranglarni o'zgartirish, almashtirish mumkin. Albatta, bu jarayonlarni amalga oshirganda tarix ilmidagi xolislik(ob'yektivlik) tamoyiliga zarar yetkazmaslikka alohida e'tibor qaratish lozim. Bundan tashqari, muhandislik dasturlarining boshqa turlari ham kundan kunga dasturchilar tomonidan yaratib kelinmoqda, bularga misol qilib, CorelDraw, AutoCad, 3D StudioMax kabi grafik muharrirlarini olishimiz mumkin. O'qituvchilar amalga oshirmoqchi bo'lgan ishlarining turiga ko'ra bu dasturlardan istaganini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.





Tarixiy tadqiqotchilar va o'qituvchilar uchun albatta, 1969 yilda AQSH mudofaa Departamenti tomonidan ishga tushirilgan internet tarmog'ining xizmati beqiyos. Internet tarmog'I bizga world wide web, qidiruv xizmatlari, web browserlar, Yangilik guruhlari va FTP, Muloqot qilish, Elektron savdolar va Telnet xizmatlarini taqdim etadi [5]. Internetda tarix ilmi xodimlari quyidagi jarayonlardan foydalanishlari mumkin: auksionlar (muayyan tarixiy ahamiyatli hujjatni sotib olish tadqiqotda foydalanish uchun), karyera maslahatlari (ish qidirish, rezyumelar yuborish, onlayn tarzda suhbatdan o'tish (bu barcha soha vakillari uchun maqbul)), masofaviy ta'lim (onlayn ma'ruzalarni tinglash, maslahatlashish va izlanish), fayllarni yuklab olish (mavzu doirasida maqolalar, kitoblar...), E-biznes (ma'ruza va maqolalarni haq evaziga sotish imkoniyati), E-mail va muhokamlar (Elektron xatlar orqali dunyoga ulanish va nufuzli xalqaro matbuotlar bilan bog'lanish imkoniyati), yangiliklar (fan sohasidagi yangiliklarni tez va oson, hohlagan tilda qo'lga kiritish imkoniyati), ma'lumotlar qidirib topish (muayyan mavzu doirasida siz istagan usul va tilda ma'lumotlar taqdim etiladi) [6].

Tarix ilmi tadqiqotchilari o'z ma'ruzalarida zamonaviy o'qitish vositalaridan keng foydalanishlari tinglovchida ma'lumotlarni ko'proq saqlash imkonini beradi. Interfaol vositalar yordamida, yangi mavzuni o'rganishda, auditoriya kuztuvchilarini bilimini mustahkamlashda va nazorat qilishda, grafika, tovush va zamonaviy texnologiyalari bo'yicha yaratilgan multimedia mahsulotlaridan maksimal darjada unumli foydalanish mumkin. Bunda bilim olish jarayoni motivatsion va kreativ tus oladi [7]. Bu jarayonga Activ Board ya'ni interfaol dosklar katta ahamiyat bilan ta'lim jarayoniga keng tadqiq etib kelinmoqda. Shuningdek interfaol proyektorlardan va Smartfon va Computer texnologiyasi splashtoo dasturlaridan foydalaniladi. Splashtop dasturi eng yaxshi qurilmalarni masofadan boshqarish imkonini beradi va googleplay sahifasi orqali yuklab olinadi [8].

Tarix fanini o'qitishda albatta, taqdimotlar orqali tushuntirish zamonaviy pedagogikaning talabi hisoblanadi. Bunda PowerPoint dasturi taqdimot uchun eng yaxshilaridan biridir. Moslashuvchan interfeysning mavjudligi, xatolarsiz ko'chirib qo'yish imkoniyati, murakkab vazifalarni bajara olish rejimida barqaror ishlash imkoniyati bu dasturni yangi avlod taqdimotli grafika mahsulotlari orasida ommaviy foydalanish darajasiga chiqargan. PowerPoint dasturining birinchi afzalligi yaxshi sozlanuvchi interfyasidir. Power Point dasturida tarix faniga oid ma'lumotlardan foydalangan holda krossvordlar ham tayyorlash imkoniyati mavjud. Bundan tashqari 3D formatda taqdimot tayyorlash imkonini beradigan PREZI dasturi ham bor.

Bundan tashqari axborot texnologiyalarining tarix fanini o'qitishda, darsliklarini foydalanuvchiga qulay qilib yetkazib berish imkonini beruvchi electron darslik yaratish imkonini beradigan CourseLab dasturi ham ahamiyatga ega.





Raqamlashtirish tarixiy tadqiqotchilar uchun misli ko'rilmagan tahliliy yo'llarni taklif etadi. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) algoritmlari kabi texnologiyalardan foydalangan holda, an'anaviy usullar bilan ko'pincha aniqlanmaydigan murakkab naqshlar va uzunlamasına tendentsiyalarni aniqlash uchun keng matn korpuslarini muntazam ravishda so'roq qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi globallashuv davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyatimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Ta'lim tizimi, xususan, tarix fanini o'qitish ham bu jarayondan chetda qolmasligi kerak. Raqamli texnologiyalar o'quv jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va samarali qilish imkonini beradi. Sun'iy intellekt, vizualizatsiya, interaktiv xaritalar va boshqa raqamli instrumentlar talabalarning tarixiy voqealarni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Shu bilan birga, texnologiyalardan oqilona foydalanish, ularga haddan tashqari qaram bo'lib qolmaslik ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda ta'lim tizimini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bu boradagi to'g'ri yo'nalishni ko'rsatadi. Kelajakda ham raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilish, tarix fanini o'qitishda innovatsion usullardan foydalanish davr talabi bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. V.A. Karimova, M.B.Zaynutdinova, E.Sh.Nazirova , SH.SH.Sadikova "Tizimli tahlil asoslari" Darslik sofatida tavsiya etilgan.O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2014y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so'zi. №19(7521)25,01,2020
3. M.Aripov, B.Begalov, U.Begimqulov "Axborot texnologiyalari' O'quv qo'llanma. Toshkent-"Noshir"-2009y
4. R.A.Dadabayeva, N.X.Shoaxmedova, L.T.Ibragimova , Sh.T.Nasriddinova, Sh.T.Ermatov "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va tizimlar".O'quv qo'llanma "Sano-standart". Toshkent-2017.
5. Захарова И.Г. Информационный технологии в образовании.- Академия ,2007.
6. T.N.Jo'rayev "T'limda axborot texnologiyalari". o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.Qarshi. "fan va ta'lim "nashriyoti 2021y 9-b.
7. Evans V., Dooley J., Wright S. Career Paths: Information technology. Student's Book.-Express ,2014

